

O'ZBEK TILI LUG'AVIY QATLAMIDA NOFAOL LEKSIK BIRLIKLARNING O'RNI

Abdrimov Sohibjon Baxromboy o'g'li
Urganch RANCH texnologiya universiteti
Lingvistika (ingliz tili) 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20342036>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tili lug'aviy qatlamidagi nofaol leksik birliklarning lingvistik tabiati, ularning turlari va til taraqqiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxaizmlar, istorizmlar, dialektizmlar hamda neologizmlarning semantik va uslubiy xususiyatlari yoritilib, ularning badiiy hamda ilmiy nutqdagi qo'llanish holatlari misollar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, nofaol leksikaning milliy madaniyat, tarixiy xotira va xalqning ma'naviy merosini saqlashdagi ahamiyati ochib beriladi. Maqola natijalarida nofaol leksik birliklar tilning tarixiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim qatlam ekanligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: *nofaol leksika, arxaizm, istorizm, dialektizm, neologizm, lug'aviy qatlam, leksik birlik, semantika, til taraqqiyoti, milliy madaniyat, tarixiy xotira, uslubiy xususiyat.*

Kirish. Mustaqillik yillariga qadar mustabid tuzumning talabiga ko'ra o'zbek tili bevosita rus tili orqali boshqa xalqlar bilan munosabatda bo'lishga majbur etildi. Jumladan, juda ko'plab ilmiy, texnikaviy, publitsistik, tarixiy, ilmiy va badiiy asarlar rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilindi. Rus tili o'zbek va Evropa, shuningdek, sharq xalqlari adabiy aloqalarida vositachi rolini bajarib keldi. Bunda originaldan qilingan tarjima rus tilida qay darajada o'zgarishga uchraganiga qarab o'zbek kitobxonini qo'lga tekkuncha asarning badiiy saviyasi belgilanar edi. Bundan tashqari, Evropa tillaridan qabul qilingan terminlar ham bevosita rus tili ta'sirida bo'lar edi. Rus tilining bu boradagi xizmatini qayd qilgan holda, so'z o'zlashtirishda ayrim kamchiliklar yuz berganligini ham nazarda tutish zarur.

Muhokama va natijalar. O'zbek tiliga rus tili orqali kirib kelgan grek tiliga xos: *parus, kravot, uksus, fonar, katorga, skamya, episkop, dyakon, patriarx, monax, matematika, grammatika, fizika, geografiya, aorta, drama, tragediya, epos, lirika, dialog, magnit*; lotin tiliga xos: *radius, prodyuser, rektor, dekan, vena, alibi, auditoriya, respublika, advokat, motor, reviziya*; nemis tiliga xos: *shtab, front, soldat, shaxta, feldsher, bint, stul, shablon, shlagbaum*; golland tiliga xos: *kompas, kreysler, zontik, kabel, tros, kvitantsiya*; frantsuz tiliga xos: *avangard, desant, arsenal, balet, estrada, ekran, peyzaj, janr, syujet, panno, sosiska, sous, baton, kafe, restoran, salat, limonad, kotlet, desert, ragu, pyure, kostyum, feleton, montyor, kupe*; italyan tiliga xos: *libretto, sonata, barokko, kvartet, karikatura, novella, makoron, vermishel, konfet, fontan, kontrabanda, salfetka* kabi so'zlar soni juda ko'p.

Bundan tashqari, o'zbek tili istiqloq davriga qadar rus tili orqali kirib kelgan inglizcha so'zlar hisobiga ham boyidi. CHunonchi, *yaxta, trauler, michman, tanker, kater* kabi dengizchilikka oid so'zlar; sport terminologiyasiga doir *futbol, voleybol, basketbol, xokkey, tennis, ring, aut, boksyor, doping, match, referi, start, finish, chempion, rekord, nokaut, raun, taym, sport, sportsmen* kabi so'zlar keng qo'llanildi. SHuningdek, ingliz tilidan o'zlashgan boshqa so'zlar: *jemper, jaz, miting, pioner, poni, xoll, trolleybus, tramvay, stend, pidjak, rom, bifshteks, intervyu, rels, pamflet, koks, keks, yumor, kombayn, lider, seyf, konteyner, dispetcher, sviter, detektiv, skver, lift, radar* kabilar o'zbek tili leksikasidan mustahkam o'rin oldi.

O'tgan asrning 90-yillariga kelib esa *kemping, motel, ralli, xobbi, toster, kompyuter, dizayn, dizayner* kabi yangi o'zlashmalar paydo bo'ldi.

Qayd qilganimizdek, o'zlashmalar o'zlaridagi ayrim fonetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, inglizcha o'zlashmalarda so'z boshida *dj* fonemasining uchrashi bilan xarakterlanuvchi leksik birliklar mavjud. Masalan: *djemper, djaz, djem, djoul, djentelmen, kottedj, byudjet* kabi. So'z oxirida *-ing* morfemasining uchrashi ham inglizcha leksika uchun xarakterlidir: *miting, demping, puding, brauning, smoking, doping* kabi. (Frone G. Ob angliyskix zaimstvovaniyax v russkom yazike. – «Russkiy yazik v shkole», 1968, № 3.)

So'z oxirida uchraydigan *-man* va *-men* morfemalari nemis, golland, ingliz tillariga xos umumiy xususiyatdir: *michman, lotsman, sportsmen* kabi. SHuningdek, otlarda uchraydigan *-er* morfemali so'zlar ham mazkur tillarga xos. Masalan: *master, kreysler, doker, trauler, sviter, dispetcher, djemper, sprinter* va boshqalar.

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz xalqaro obruyining oshib borishi, jahonning yuzdan ortiq davlatlari bilan diplomatik aloqalarning o'rnatilishi, globallashuvning kuchayishi, savdo-sotiq va madaniy aloqalarning kengayishi o'zbek tili mavqening ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu o'z navbatida tilimizga boshqa tillardan, birinchi navbatda, ingliz tilidan yangi-yangi so'zlarning kirib kelishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, terminologik sathda bu holat ko'zga yaqqol tashlanadi. Mazkur holat o'zbek tiliga yangidan kirib kelayotgan til birliklarining fonetik, leksik semantik va grammatik xususiyatlarini o'rganish, ularni tadqiq qiish masalalarini ham lingvistlar zimmasiga yuklamoqdaki, bu ularning leksik sathdagi mavqeni, tildagi o'rni, vazifalari kabilarni belgilab berish kerakligini ko'rsatmoqda.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, tilning leksik qatlamidagi o'zgarishlar doimiy tarzda davom etar ekan, tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biri tilning leksik qatlami boyishida muhim rol o'ynaydigan o'zlashma so'zlar va ularning o'rganilishi bilan bog'liq masalalar bo'lib qolaveradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Doniyorov R, Qosimov A. "Terminologiya va so'z yasalishining ayrim masalalari" O'zbek tili va adabiyoti", 1995, 4-son
2. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., "Talqin", 2005.
3. Makovskiy M.M.. Angliyskaya dialektologiya. Sovremennie angliyskie territorialnie dialekti Velikobritanii. M., Visshaya shkola, 1980, str.32-56,57-76
4. Richard A.Spiers. Anglo-russkiy slovar amerikanskogo slenga- ENGLISH-RUSSIAN DICTIONARY OF AMERICAN CLANG. M., Izd.. "Knijniy sad", 1993,
5. Frone G. Ob angliyskix zaimstvovaniyax v russkom yazike. – «Russkiy yazik v shkole», 1968, № 3
6. Chelpanov G.I. Uchebnik logiki. M., 1946, str.8.